

A BO'LIM

1. Qaysi son 14 ga bo'linmaydi?

- A) 70
- B) 42
- C) 28
- D) 24

2. Hisoblang: $8324 - 3641 =$

- A) 4580
- B) 4683
- C) 4583
- D) 4673

3. x ning qiymatini toping.

$$18 + 3 : 3 - 2 = x$$

- A) 5
- B) 17
- C) 19
- D) 21

4. Nuqtalar o'rniga ifodani qanoatlantiradigan belgini qo'ying.

$$6 + 15 \dots 24 - 7$$

- A) \leq
- B) $=$
- C) $<$
- D) $>$

5. * o'rniga qaysi raqam qo'yilsa to'g'ri tenglik hosil bo'ladi?

$$32 * 4 - 1391 = 1853$$

- A) 3
- B) 6
- C) 4
- D) 7

6. O'quv qurollari ishlab chiqaradigan zavodda har bir ishchi kuniga 15 ta ruchka ishlab chiqaradi. Zavodda 5 kunda 8 ta ishchi nechta ruchka ishlab chiqaradi?
- A) 360
 - B) 400
 - C) 280
 - D) 600
7. Aziz tug'ilgan paytda 3 kg 865 g edi. Nodir tug'ilganida 4 kg 220 g edi. Bolalarning tug'ilgan paytdagi umumiy og'irligi qancha bo'lgan?
- A) 7 kg 865 g
 - B) 8 kg 850 g
 - C) 8 kg 85 g
 - D) 7 kg 85 g
8. Javlon do'kondan 3 xil turdagi go'sht sotib oldi. U $\frac{1}{4}$ kg lahm go'sht, $\frac{3}{4}$ kg tovuq go'shti va $\frac{3}{4}$ kg kurka go'shti sotib oldi. Javlon sotib olgan go'shtlarining umumiy og'irligi quyida berilgan oraliqlarning qaysi biriga mos keladi?
- A) 1 kg dan kam
 - B) 1 va $1\frac{1}{2}$ kg orasida
 - C) $1\frac{1}{2}$ kg va 2 kg orasida
 - D) 2 kg dan ko'proq
9. Lolada 12 ta o'yinchoq mashinasi bor edi. U singlisiga 3 ta mashinani berdi. Lola mashinalarining qancha qismini singlisiga bergan?
- A) $\frac{3}{4}$
 - B) $\frac{1}{4}$
 - C) $\frac{2}{3}$
 - D) $\frac{1}{3}$

10. Fotimada 12 ta Zuhrada 18 ta qalam bor. Zuhra daftarlarining qancha qismini Fotimaga bersa, ulardagi daftarlar soni teng bo‘ladi?

A) $\frac{2}{3}$

B) $\frac{1}{3}$

C) $\frac{1}{2}$

D) $\frac{1}{6}$

B BO'LIM

11. Kvadrat va uchburchak ortiga yashiringan sonlarni toping.


$$\begin{array}{l} \triangle + 4 = 7 \\ \square + \triangle = 9 \end{array}$$

- A) 6 va 3
- B) 11 va 2
- C) 5 va 4
- D) 4 va 5

12. Maktabda 40 ta o'qituvchi bor. Har bir o'qituvchiga 2 500 varaq berilgan bo'lsa, umumiy berilgan varaqlar soni nechta?

- A) 10 000
- B) 100 000
- C) 1 000 000
- D) 10 000 000

13. Quyida son o'qiga qarang. $\frac{2}{3}$ soni qaysi shaklning orasida joylashgan?



- A) \square va \circ orasida B) \circ va \triangle orasida C) \triangle va \square orasida D) \square va \star orasida

14. Kamolning qutisida 120 ta marka bor edi. U Madinaga markalarning $\frac{6}{10}$ qismini berdi. Kamolning qutisida nechta marka qoldi?

- A) 12
- B) 20
- C) 48
- D) 60





15. Muzeyda 638 ta talaba bor edi. Barcha talabalar 6 ta guruh bo‘lib sayohat qilishdi. Sayohat guruhining eng kichik soni quyidagilardan qaysi biriga teng bo‘la olmaydi?

- A) 104
- B) 105
- C) 106
- D) 107

16. Bahromda 72000 so‘m pul bor edi. U pulining $\frac{1}{4}$ qismiga kartoshka va qolgan puliga banan sotib oldi. 1 kg kartoshkaning narxi 3 000 so‘m va 1 kg bananning narxi 9 000 so‘m bo‘lsa, unecha kilogramm kartoshka bilan banan sotib olgan?

- A) 9
- B) 16
- C) 6
- D) 12

17. Noilada 4 ta kuchukcha bor va har bir kuchukchaning og‘irligi $\frac{4}{3}$ kg. Noila quyidagi ifodada $4 \cdot \frac{4}{3}$ kuchukchalarning umumiy og‘irligini tasvirlagan. Qaysi javobda Noilaning 4ta kuchukchalarining umumiy og‘irligi berilgan?

- A) 
- B) 
- C) 
- D) 

18. Savolga javob berish uchun quyidagi tenglikdan foydalaning.

$$4 \cdot 2047 = \nabla$$

Qaysi ifoda ∇ ni to'liq ifodalaydi.

- A) $(4 \cdot 20) + (4 \cdot 47)$
- B) $(4 \cdot 20) + (4 \cdot 40) + (4 \cdot 7)$
- C) $(4 \cdot 2000) + (4 \cdot 40) + (4 \cdot 7)$
- D) $(4 \cdot 2000) + (4 \cdot 400) + (4 \cdot 70)$

19. Binoning to'rtinchi qavatidan beshinchi qavatigacha bo'lgan masofa 4 metr. Shu binoning birinchi qavatidan beshinchi qavatigacha bo'lgan masofa necha metrga teng?

- A) 10
- B) 20
- C) 16
- D) 12

20. Temur soat 6:55 da istirohat bog'iga bordi. U bog'da kuchugi bilan 40 minut sayr qildi va 35 minut o'ynadi. Temur soat nechada bog'dan chiqib ketgan?

- A) 8:20
- B) 8:15
- C) 8:10
- D) 8:55

C BO'LIM


21. Madina 7 dan 48 gacha bo'lgan sonlarni yozib chiqdi. Madina bu sonlarni yozib chiqish davomida 3 raqamidan necha marta foydalangan?

- A) 11
- B) 12
- C) 13
- D) 14

22. Javlon va akasining yoshlari yig'indisi 12 ga teng. Aka-ukalarning yoshlari yig'indisi 4 yildan so'ng nechaga teng bo'ladi.

- A) 16
- B) 18
- C) 19
- D) 20

23. To'g'ri to'rtburchakdagi bo'yalgan qismning yuzasini toping.



- A) 72
- B) 88
- C) 78
- D) 82

24. Anvar seshanba kuni soat 8:00 da Samarqandga borishi uchun chipta sotib oldi. Uning poyezdi keyingi shanba soat 17:00 da jo'naydi. Anvarning poyezdi jo'nashiga necha soat qolgan?

- A) 17 soat
- B) 96 soat
- C) 108 soat
- D) 105 soat


25. Anora 4040 ni hosil qilish uchun bir nechta 4 raqamlarini qo'shib chiqdi.

$$4 + 4 + 4 + \dots + 4 = 4040$$

Anora qo'shishda foydalangan raqamlar sonining yarmiga teng sondagi 2 raqamlarini qo'shib chiqilsa, yig'indi nechaga teng bo'ladi?

- A) 3030
- B) 7070
- C) 4040
- D) 1010


26. Qaysi shakl 10 ta kubdan tuzilgan?



27. Farhodda 7 ta qora, 4 ta ko'k va 6 ta qizil qalamlar bor. Jami qalamlarning qancha qismini qora va ko'k qalamlar tashkil etadi?

- A) $\frac{6}{17}$
- B) $\frac{10}{17}$
- C) $\frac{11}{17}$
- D) $\frac{7}{17}$

28. To'rtta bola nishonga o'q otishni tugallashdi. Qaysi javobda turgan nishon egasi g'olib bo'lgan?



29. Sonlar ketma - ketligining keyingi uchta sonini toping.

231, 236, 245, 258, 275, __, __, _

A) 294, 319, 354

B) 294, 319, 350

C) 296, 321, 354

D) 296, 321, 350

30. Jamshid ukasi Alisherdan 3 yosh katta, uning otasi onasidan 6 yosh katta. Jamshidning otasi 35 yosh va u Jamshiddan 28 yosh katta. Jamshid, ukasi va ota-onasining yoshlari umumiy yig'indisi nechaga teng?

A) 81

B) 67

C) 72

D) 75